



## JINOYATLARNI OCHISHDA HUJJATLARNING TEXNIK KRIMINALISTIK EKSPERTIZASINING AHAMIYATI.

**Eshbekov Sardorjon Sulton o'g'li**

*O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi 328-guruh kursanti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada hujjatlarning texnik kriminalistik ekspertizasi, uning imkoniyatlari, metodlari hamda hujjatlarning texnik kriminalistik ekspertizasining zamonaviy imkoniyatlari haqida umumiy ma'lumotlar keltirib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Ekspertiza turlari, hujjatlarning texnik kriminalistik ekspertizasi, obyekt, rekvizit, imzo, shtamp va muhr.*

So'nggi yillarda mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishga, shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, uning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish hamda ushbu sohada xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy tajribani joriy etishga qaratilgan samarali ishlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, jinoyat sodir etishda zamonaviy texnologiyalar va usullarni qo'llash butun dunyoda tobora ommalashib borayotganligini inobatga olib, shaxsning ijtimoiy xavfli qilmish uchun aybliligini sudda ilmiy-texnik jihatdan asoslangan ishonchli dalillar bilan isbotlash jarayonlarini yanada takomillashtirish talab etilmoqda.

Jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha o'tkazilayotgan tezkor-qidiruv tadbirlari, tergov va sud harakatlarida dalillarni to'plashda zamonaviy fan va texnikaning ilg'or yutuqlarini, xususan kriminalistik ilmiy usul va vositalarni qo'llash amaliyotini yangi bosqichga olib chiqish lozim.

Sodir etilgan huquqbuzarliklarni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda o'z vaqtida aniqlash va qisqa muddatlarda fosh etish, ashyoviy dalillarning kriminalistik tadqiqotlarini yanada takomillashtirish, shuningdek, ichki ishlar organlari ekspert-kriminalistika bo'linmalarining bu boradagi imkoniyatlarini oshirish maqsadida:

1. Quyidagilar ichki ishlar organlarining ekspert-kriminalistika faoliyatini yanada takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari etib belgilansin:

zamonaviy fan va texnikaning ilg'or yutuqlarini, raqamli texnologiyalarni, kriminalistikaning yangi ilmiy usul va vositalarini qo'llash mexanizmlarini joriy etish, zamon talablariga mos avtomatlashtirilgan kriminalistik axborot-qidiruv tizimlari va axborot bazalarini yaratish;

axborot texnologiyalari yordamida sodir etiladigan huquqbuzarliklar bo'yicha raqamli ekspertizaning imkoniyatlaridan keng foydalanish, bu borada kriminalistik hisoblarni yuritish;

shaxsga doir biometrik ma'lumotlar (genomga oid axborot, yuz qiyofasi, qo'l barmoq izlari) asosida avtomatlashtirilgan identifikatsiya tizimlarini qo'llash sohasini muvofiqlashtirish mexanizmlarini tatbiq qilish;



tezkor-qidiruv tadbirlari, tergov va sud harakatlarida ashyoviy dalillar tadqiqotining yangi turlari, innovatsion kriminalistik yondashuv, usul hamda texnik vositalarini keng joriy etish, bu borada laboratoriyalar faoliyatini xalqaro standartlar talabiga moslashtirish;

ashyoviy dalillarni isbot qilishda ularning ishonchliligini oshirish bo'yicha doimiy ravishda ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini amalga oshirish hamda sud-ekspertlik faoliyatiga tatbiq etish amaliyotini yo'lga qo'yish;

ekspert-kriminalistika sohasida kadrlarni maqsadli tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha butunlay yangicha samarali o'quv-amaliyot jarayonini tashkil etish, ekspert-kriminalist xodimlarning mavqeyini ko'tarish hamda sud-ekspertlik faoliyatidagi xolisligi va mustaqilligini har tomonlama ta'minlash<sup>1</sup>.

Jinoyatchilikka qarshi kurashishda ekspert-kriminalistika sohasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Soha vakillari sodir etilgan jinoyatlarni issiq izidan ochishda o'zining asoslantirilgan xulosasi hamda aniq yo'nalishlar berish orqali bunday sharaflari vazifani bajarib kelishmoqda. Ekspert-kriminalistika sohasida 50dan ortiq ekspertiza turi mavjud bo'lib ulardan 7 tasi an'anaviy ekspertiza hisoblanadi.

Kriminalistik ekspertizaning an'anaviy 7 ta turi quyidagilardan iborat:

Balistik ekspertiza

Xatshunoslik ekspertizasi

Hujjatlarni texnik kriminalistik ekspertizasi

Sovuq qurol ekspertizasi

Daktalaskapik ekspertiza

Trasalogik ekspertiza

Partret ekspertizasi

Yuqoridan to'xtalib o'tadiganimiz hujjatlarni texnik kriminalistik ekspertizasi bu qonunda belgilangan protsessual shaklda tegishli ekspert xulosasini rasmiylashtirish bilan, tergov harakatlari va sud muhokamasi jarayonida o'zgartirish kiritilgan muhr va shtamp akslari, mashinka yoki printerda bajarilgan matnlar, telegraf, kassa va boshqa bosma qurilmalarda tayyorlangan matnlar, rekvizitlar to'g'risida asoslantirilgan ma'lumot beruvchi soha.

Hujjatlarni texnik kriminalistik ekspertizasi predmetiga tadqiqot o'tkazilayotgan obyektning tashkil etadigan rekvizitlar, solishtirilayotgan obyektidagi umumiylik hamda undan farq qiluvchi belgilar, ularni tayyorlanish usulini aniqlash bilan bog'liq faktlar kiradi.

Hujjatlarni texnik kriminalistik ekspertizasi obyektlarini qo'lyozma matnlar, bosma shakilda tayyorlangan materiallar, shtamp, pechatlar, o'zgartirish kiritish usullari yordamida tayyorlangan hujjatlar tashkil etadi.

Hujjat – ashyoviy dalil sifatida juda ko'p hollarda, jinoyat protsessi ishtirokchilari tomonidan yaxshi idrok qilinmaydigan va ularni baholash uchun maxsus bilimlar talab etiladigan belgilarning tashuvchilari hisoblanadi<sup>2</sup>. Hujjatlarni qalbakilashtirish bilan bog'liq jinoyat ishlari bo'yicha, bu kabi maxsus bilimlardan foydalanishning asosiy protsessual shakli – bu hujjatlarning texnik-kriminalistik ekspertizasidir





- Hujjatlar 2 turga bo`linadi: 1. Asl hujjatlar.  
2. O`zgartirish kiritilgan hujjatlar.

O`zgartirish kiritishni ham 2 ta turi mavjud bo`lib:

- Moddiy
- Intelektual.

Moddiy o`zgartirish kiritish hujjatlarni texnik kriminalistik ekspertizasi obyekti bo`ladi chunki moddiy o`zgartirish kiritishga hujjatlarni tashkil etuvchi rekvizitlar qisman yoki to`liq texnik usulda o`zgartiriladi.

Rekvizitlar (lotincha “requisitum” – talab etiladigan, zarur)- dalolatnoma yoki hujjatlar haqiqiylikini isbotlash uchun yozilgan majburiy ma`lumotlar deb ta`kidlangan<sup>3</sup>.

Hujjatlarning texnik-kriminalistik ekspertizasi oldiga qo`yiladigan savollar:

– yozuvlarni qanday usulda bajarilgan (bevosita yozuv qurilmasidami yoki nusxa ko`chiruvchi qurilma yoxud montaj usulidami)?

– yozuvni bajarishda ishlatilgan yozuv qurilmasining turi qanday?

– hujjatni tayyorlashda ishlatilgan iz hosil qiluvchi sirt (podlojka) qanday xususiyatlarga ega bo`lgan?

– tekshirilayotgan imzo dastlabki texnik tayyorgarlik ko`rib keyin bajarilganmi?

– tekshirilayotgan qo`lyozma matn qo`shib yozish, alohida chiziqlarni chizib qo`yish, bir shtrixlarni ikkinchisining ustidan chizish usullari bilan o`zgartirilganmi?

– tekshirilayotgan qo`lyozma matn tozalash, yemirish (yuvish) usullarida o`zgartirilganmi?

– qo`lyozma matn va hujjatning boshqa rekvizitlarining o`zaro kesishuvchi shtrixlari qanday ketma-ketlikda bajarilgan?

– hujjatdagi yozuvlar bir yoki turlicha yozuv qurilmalari yordamida bajarilganmi?

– hujjatdagi yozuvlar aniq bir yozuv qurilmasida bajarilganmi?

– yemirish, tozalash usullari bilan o`chirilgan yozuvlarning mazmuni qanday?

– ustidan yelimgan yozuvlarning mazmuni qanday?

– ustidan suyuqlik to`kilgan, chizib tashlangan yozuvlarning mazmuni qanday?

– bosilgan yozuvlarning mazmuni qanday?

– hujjatning yo`qotilgan (yirtib tashlangan) bo`lagidagi yozuvlarning mazmuni qanday?

– rangi o`chib ketgan yozuvlarning mazmuni qanday?

– ko`rinmas (simpatik) siyoh bilan bajarilgan yozuvlarning mazmuni qanday?

– nusxa ko`chiruvchi qog`ozda aks etgan yozuvlarning mazmuni qanday?

– taqdim etilgan nusxa ko`chiruvchi qog`ozdan nechta hujjatni bajarishda ishlatilgan?

• Muhr va shtamlarning texnik-kriminalistik tadqiqotlarida hal etiladigan savollar:

– hujjatdagi muhr (shtamp) aksi qanday usulda bajarilgan?

– aks hujjatda mavjud bo`lgan muhr (shtamp) qanday usulda tayyorlangan?

– muhr (shtamp) aksining mazmuniga o`zgartirishlar (qo`shib yozish yoki chizish, tozalash, yemirish usullarida) kiritilganmi?



– muhr (shtamp) aksini tushirish vaqti hujjatda ko'rsatilgan sanaga to'g'ri keladimi, muhr (shtamp) aksi qanday davrda tushirilgan?

– muhr (shtamp) aks va hujjatning boshqa rekvizitlaridagi o'zaro kesishuvchi shtrixlar qanday ketma-ketlikda bajarilgan?

– muhr (shtamp)ning yaxshi ko'rinmaydigan aksi mazmuni qanday?

– muhr (shtamp)ning o'zgartirilgan aksining dastlabki mazmuni qanday

– tekshirilayotgan muhr (shtamp) aksi aniq bir muhr (shtamp)dan qoldirilganmi?

– hujjatdagi muhr (shtamp) akslari bir yoki turlicha muhr (shtamp)lardan qoldirilganmi?

Hujjatlarning texnik kriminalistik ekspertizasi hozirgi kunda rivojlanib kelayotgan ekspertiza turlaridan biri hisoblanadi. Chunki hozirgi zamon axborotlashtirilgan, axborot texnologiyalari rivojlanayotgan davrda yashayapmiz shunday ekan hozirgi kunda turli xil texnologiyalar ishlab chiqilmoqda va buning natijasida ekspertiza turlari ham kundun-kunga rivojlanib bormoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi qonun 01.06.2010.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 08.02.2022 yildagi PQ-122-son "IIO ekspert-kriminalistika faoliyatini zamonaviy ilm-fan yutuqlarini keng joriy etgan holda yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida".
3. Yuridik ensiklopediya/Yuridik fanlar doktori, professor U.Tadjixonovning umumiy taxirida.
4. Hujjatlarning texnik-kriminalistik ekspertizasi: Ma'ruzalar kursi.
5. <http://akadmvd.uz>
6. <http://lex.uz>
7. <http://www.tsil.uz>